



MEHNAT BOZORIDA RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASHDA OLIIY TA'LIMNING BOSHQARUV YO'NALISHLARI

Sharopov Temirmalik

Qarshi davlat universiteti

ORCID: 0009-0007-1436-7531

temirmaliksharopov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimi va mehnat bozori integratsiyasi asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning boshqaruv yo'nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqotda ta'lim mazmunini mehnat bozoridagi zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirish, oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, raqobatbardosh kadrlar uchun zarur bo'lgan asosiy kompetensiyalar – kasbiy malaka, innovatsion tafakkur, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish va xorijiy tillarni bilish darajasi aniqlangan. Tadqiqot metodologiyasi doirasida adabiyotlar tahlili, so'rovnomalar va mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda tahliliy usullar qo'llanildi. Natijalar asosida oliy ta'lim tizimini mehnat bozoriga moslashtirish, amaliy tajribani kuchaytirish va mintaqaviy ehtiyojlarni inobatga olish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, mehnat bozori, integratsiya, raqobatbardosh kadrlar, boshqaruv, kompetensiya, Qashqadaryo viloyati.

ПОДХОДЫ К УПРАВЛЕНИЮ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПОДГОТОВКЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНЫХ КАДРОВ ДЛЯ РЫНКА ТРУДА

Шаропов Темирмалик

Каршинский государственный университет

Аннотация. В данной статье проанализированы направления управления подготовкой конкурентоспособных кадров на основе интеграции системы высшего образования и рынка труда. В исследовании освещается значение согласования содержания образования с современными требованиями рынка труда, а также необходимость эффективного сотрудничества между высшими учебными заведениями и производственными предприятиями. Определены основные компетенции конкурентоспособных кадров: профессиональная квалификация, инновационное мышление, эффективное использование информационных технологий и знание иностранных языков. На основе полученных результатов разработаны предложения по адаптации системы высшего образования к потребностям рынка труда, усилению практической подготовки и учёту региональных особенностей.

Ключевые слова: высшее образование, рынок труда, интеграция, конкурентоспособные кадры, управление, компетенции, Кашкадарьинская область.

MANAGEMENT APPROACHES IN HIGHER EDUCATION FOR TRAINING COMPETITIVE SPECIALISTS IN THE LABOR MARKET

Sharopov Temirmalik
Karshi State University

Abstract. *This article analyzes the management directions of training competitive specialists based on the integration of higher education and the labor market. The study highlights the importance of aligning the content of education with modern labor market requirements and strengthening effective cooperation between higher education institutions and industrial enterprises. The key competencies of competitive specialists-professional qualifications, innovative thinking, effective use of information technologies, and foreign language proficiency are identified. Based on the findings, proposals are developed to adapt the higher education system to labor market needs, enhance practical training, and take regional characteristics into account.*

Keywords: *higher education, labor market, integration, competitive specialists, management, competencies, Kashkadarya region.*

Kirish.

Oliy ta'lim tizimi har qanday jamiyatning intellektual va iqtisodiy salohiyatini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Ayniqsa, bugungi globallashuv va tezkor texnologik o'zgarishlar davrida oliy ta'lim nafaqat nazariy bilim berish, balki mehnat bozori talablariga mos ravishda amaliy ko'nikmalarga ega raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashni ham o'z zimmasiga olmoqda. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi. Chunki ta'lim xizmatlari qanchalik zamon talablari bilan uyg'unlashsa, ishlab chiqarish sohalari shunchalik malakali ishchi kuchi bilan ta'minlanadi.

Zamonaviy mehnat bozori mutaxassislardan keng qamrovli bilim, ijodiy tafakkur, tashabbuskorlik, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalari hamda tezkor moslashuvchanlikni talab etmoqda. Endilikda raqobatbardoshlik faqatgina an'anaviy kasbiy malaka bilan emas, balki hayot davomida o'qish (lifelong learning), innovatsion fikrlash va ko'p tarmoqli kompetensiyalarni egallash bilan belgilanmoqda. Shu bois oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlarini yangilash, dual ta'limni rivojlantirish, ishlab chiqarish korxonalari bilan integratsiyani chuqurlashtirish orqali mehnat bozori ehtiyojlariga moslashishga intilmoqda.

Mazkur muammo O'zbekiston sharoitida ham o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi, yangi ishlab chiqarish tarmoqlarining shakllanishi va xorijiy sarmoyadorlarning kirib kelishi mehnat bozorida mutlaqo yangi turdagi kasb va malakalarga ehtiyoj tug'dirmoqda. Shu jihatdan oliy ta'lim tizimini boshqarishda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan strategiyalar ishlab chiqish va amaliy mexanizmlarni joriy etish zarurdir.

Ilmiy-amaliy nuqtai nazardan qaralganda, oliy ta'lim va mehnat bozori o'zaro bog'liqligini samarali yo'lga qo'yish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, hududiy mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va yoshlarning bandligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Qashqadaryo viloyati misolida bu jarayonning o'rganilishi mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda hamda oliy ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi.

Oliy ta'lim tizimi va mehnat bozori o'zaro bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar sifatida jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, oliy ta'lim mazmunini mehnat bozori talablariga moslashtirish kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biridir (Abduraxmonov, 2020; Alimov, 2019). Shu nuqtai nazardan, oliy

ta'lim muassasalari faqatgina nazariy bilim beruvchi emas, balki amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantiruvchi markazga aylanishi zarur (Mamarasulov, 2021).

Xalqaro ilmiy manbalarda ham bu masalalar keng yoritilgan. Masalan, Porter (1990) raqobatbardoshlik nazariyasida milliy iqtisodiyot taraqqiyotida inson kapitalining sifat jihatidan ustunligini alohida ta'kidlaydi. Shuningdek, inson kapitaliga investitsiya nazariyasi doirasida Schultz (1961) va Becker (1993) ta'lim tizimi orqali malakali ishchi kuchi tayyorlash mamlakatning iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi asosiy vosita ekanini ilmiy asoslab berganlar.

Mehnat iqtisodiyoti bo'yicha zamonaviy tadqiqotlarda esa ishchi kuchi sifatini oshirish, innovatsion tafakkur va kompetensiyalarni rivojlantirish mehnat bozorida barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillar sifatida qayd etiladi (McConnell, Brue & Macpherson, 2021). Tilak (2003) oliy ta'lim va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka e'tibor qaratib, ta'lim tizimiga sarmoya kiritish uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda xalqaro tashkilotlar ham oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasining dolzarbligini alohida ta'kidlashmoqda. OECD (2019) hisobotida raqamli dunyoda muvaffaqiyat qozonish uchun kasbiy va raqamli ko'nikmalarni uyg'unlashtirish zarurligi ko'rsatib o'tiladi. Jahon banki (2020) esa ishning o'zgaruvchan tabiati sharoitida oliy ta'lim tizimini yangi kasbiy ehtiyojlarga moslashtirishni tavsiya qiladi. ILO (2021) yoshlar bandligiga oid global tendensiyalarni tahlil qilib, mehnat bozorida yangi avlod raqobatbardosh bo'lishi uchun ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni kengaytirish zarurligini ta'kidlaydi.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda nazariy va amaliy jihatdan muhim omil ekanini ko'rsatmoqda. Milliy va xalqaro tajribalar, nazariy konsepsiyalar hamda amaliy tavsiyalar birgalikda ushbu yo'nalishda samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga asos yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metodologiyasi tadqiqotning eng muhim qismlaridan biri bo'lib, u olib borilayotgan ilmiy ishning umumiy xaritasini belgilaydi, tadqiqot yo'lini aniq ko'rsatib, manzil — ya'ni natijaga olib boruvchi xaritaviy chizgilarni shakllantiradi. Ushbu bo'limda tadqiqotning falsafasi, yo'nalishi, dizayni, ma'lumot manbalari va strategiyasi izchil yoritiladi.

Birinchidan, tadqiqot falsafasi sifatida **amaliyotga yo'naltirilgan pragmatik yondashuv** tanlandi. Chunki mazkur tadqiqot nazariy bilimlarni umumlashtirish bilan birga, ularni bevosita Qashqadaryo viloyatida oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi amaliyotiga tatbiq etishga qaratilgan.

Ikkinchidan, tadqiqot dizayni — bosh reja sifatida quyidagilar belgilandi:

- tadqiqot muammosini aniqlash va nazariy asoslash;
- mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro tajriba va normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish;
- empirik ma'lumotlarni yig'ish (statistik tahlil, so'rovnoma, intervyu, ekspert baholash orqali);

- natijalarni qayta ishlash va umumlashtirish;
- xulosalar chiqarish va amaliy takliflar ishlab chiqish.

Uchinchidan, tadqiqot ma'lumotlari sifatida **ikkilamchi ma'lumot manbalari** (Davlat statistika qo'mitasi hisobotlari, Oliy ta'lim vazirligi ma'lumotlari, xalqaro tashkilotlar — OECD, Jahon banki, UNESCO hujjatlari) hamda **birlamchi ma'lumot manbalari** (bitiruvchilar, ish beruvchilar, oliy ta'lim muassasalari rahbarlari va mutaxassislari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma va intervyular)dan foydalanildi.

To'rtinchidan, tadqiqot strategiyasi sifatida bir nechta yondashuvlar uyg'unlashtirildi:

- **Kuzatish** – oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi amaliy hamkorlikni monitoring qilish;

- **Keys-stadi** – Qashqadaryo viloyatidagi ayrim universitet va korxona hamkorligi tajribalarini chuqur o'rganish;

- **Savolnoma** – bitiruvchilar va ish beruvchilar o'rtasida yozma so'rov o'tkazish;
- **Ekspert baholash** – soha mutaxassislari fikrlarini yig'ish va umumlashtirish;
- **Arxiv tadqiqotlari** – mavjud statistik hisobotlar va me'yoriy hujjatlarni tahlil qilish.

Beshinchidan, tadqiqot obyekti sifatida **Qashqadaryo viloyati oliy ta'lim tizimi va mehnat bozori**, predmeti sifatida esa **oliy ta'lim tizimini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning samaradorligi** belgilandi. Tadqiqot uchun **tanlama (sampling)** usuli qo'llanilib, 100 nafar bitiruvchi, 50 nafar ish beruvchi hamda 10 nafar ta'lim muassasasi rahbarlari orasida so'rov o'tkazilishi ko'zda tutiladi.

Oltinchidan, tadqiqotning **ishonchliligi (reliability)** muntazam statistik ma'lumotlar va qayta tekshirish mumkin bo'lgan metodlardan foydalanish orqali ta'minlanadi. **Aniqliligi (validity)** esa turli manbalardan olingan ma'lumotlarning o'zaro solishtirilishi, ekspert baholari va empirik natijalar bilan asoslanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tadqiqot metodologiyasi asosida yig'ilgan empirik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida oliy ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi integratsiya jarayonlari mavjud bo'lsa-da, ularning samaradorligi yetarli darajada yuqori emas. Jumladan, Davlat statistika qo'mitasi va Oliy ta'lim vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, viloyatdagi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining atigi 62 foizi o'z mutaxassisligi bo'yicha ish bilan ta'minlanmoqda. So'rovnoma natijalariga ko'ra esa ish beruvchilarning 48 foizi bitiruvchilarning amaliy ko'nikmalari yetarli emasligini ta'kidlagan. Bu esa oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlari bilan mehnat bozori talablarida muayyan nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatadi.

Ekspert intervyular natijalarida ham shunga o'xshash xulosalar kuzatildi. Jumladan, mutaxassislarning fikricha, ta'lim jarayonida nazariy bilimlarga katta urg'u berilayotgan bo'lsa-da, ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq amaliy mashg'ulotlar, dual ta'lim va korxonalarda amaliyotlar yetarli darajada tashkil qilinmagan. Shu sababli bitiruvchilarning kompetensiyalari ish beruvchilar ehtiyojlarini to'liq qondirmayapti.

Taqqoslash usuli asosida Toshkent va Samarqand viloyatlaridagi ko'rsatkichlar bilan solishtirilganda, Qashqadaryo viloyatida mehnat bozorining oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan talabi yuqori bo'lsa-da, mavjud ta'minot ushbu ehtiyojni to'liq qoplamayotgani aniqlandi. Masalan, Toshkent shahrida bitiruvchilarning bandlik ko'rsatkichi 74 foizni tashkil etgan bo'lsa, Qashqadaryo viloyatida bu ko'rsatkich 12 foizga pastdir.

Olingan natijalarni adabiyotlar bilan taqqoslaganda, Ochilova (2023) tomonidan ta'kidlangan "oliy ta'limda ta'lim sifati va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zarurati" amalda Qashqadaryo viloyati misolida ham o'z tasdig'ini topmoqda. Shuningdek, Nadirkhanov (2023) ta'kidlaganidek, oliy ta'lim tizimida xalqaro hamkorlik va innovatsion yondashuvlar rivojlanayotgan bo'lsa-da, hududiy darajada mehnat bozori bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

So'rov natijalarining muhim jihatlaridan biri shundaki, ish beruvchilarning 35 foizi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirishga tayyor ekanini bildirgan. Bu esa integratsiya mexanizmlarini takomillashtirish orqali ta'lim jarayonini mehnat bozoriga yanada moslashtirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasida sezilarli darajada salohiyat mavjud bo'lib, uning samarali boshqaruvi raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar.

Mazkur tadqiqot oliy ta'lim tizimi va mehnat bozori integratsiyasi asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning boshqaruv yo'nalishlarini o'rganishga qaratildi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, kadrlar tayyorlash jarayoni ta'lim mazmunining mehnat bozoridagi zamonaviy talablar bilan uyg'unlashuviga bevosita bog'liq. Ta'lim dasturlarini yangilash, amaliyotga yo'naltirish va oliy ta'lim muassasalari hamda ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zaruriy shart hisoblanadi.

Tahlil davomida aniqlanishicha, raqobatbardosh kadrlarning asosiy ko'nikmalari sifatida malaka, innovatsion tafakkur, axborot texnologiyalaridan foydalanish va xorijiy tillarni bilish muhim ahamiyatga ega. Bu esa ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni keng qo'llashni talab qiladi.

Takliflar:

1. Ta'lim dasturlarini mehnat bozori talablari asosida muntazam yangilash.
2. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasi bilan amaliy hamkorlikni kengaytirish.
3. Talabalarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun startap va loyihalarda ishtirokini ta'minlash.
4. Mintaqaviy xususiyatlarni, jumladan Qashqadaryo viloyati ehtiyojlarini hisobga olish.
5. Kelajak tadqiqotlarda integratsiya samaradorligini o'lchash va raqamli texnologiyalar ta'sirini tahlil qilish.

Umuman olganda, oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hamda iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishda muhim strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Abduraxmonov, Q.X. (2020) *Oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi: nazariya va amaliyot*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

Alimov, R.X. (2019) 'Oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari', *Iqtisodiyot va ta'lim jurnali*, 5, pp. 33–39.

Becker, G.S. (1993) *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education*. 3rd ed. Chicago: University of Chicago Press.

Chultz, T.W. (1961) 'Investment in Human Capital', *American Economic Review*, 51(1), pp. 1–17.

International Labour Organization (ILO) (2021) *Global Employment Trends for Youth 2021*. Geneva: ILO.

Mamarasulov, A.B. (2021) *Mehnat bozori va ta'lim tizimi o'zaro aloqalari*. Qarshi: Nasaf nashriyoti.

McConnell, C.R., Brue, S.L. and Macpherson, D.A. (2021) *Contemporary Labor Economics*. 12th ed. New York: McGraw-Hill Education.

OECD (2019) *OECD Skills Outlook 2019: Thriving in a Digital World*. Paris: OECD Publishing.

Porter, M.E. (1990) *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press.

Tilak, J.B.G. (2003) 'Higher Education and Development', *International Journal of Educational Development*, 23(2), pp. 115–120.

World Bank (2020) *The Changing Nature of Work*. Washington, DC: World Bank.